


RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **2,7 trln. so'm**, o'sish sur'ati **2,0 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **102 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **95,1 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **103,8 %**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning 1 aprel holatiga qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2661,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,0 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2478,6 mlrd.so'mni (102,1 %), o'rmon xo'jaligi – 145,6 mlrd.so'mni (101,8 %), baliq xo'jaligi – 37,2 mlrd.so'mni (105,2 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Parkent (104,3 %), Toshkent tumani (103,7 %), Piskent (102,8%) va Zangiota (102,7 %) tumanlarida kuzatildi. Olmaliq.shahar (100,5 %) Bekobod.shahar (100,6%) O'rtachirchiq tumanida (100,8 %) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, %da



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Zangiota tumanining ulushi 11,0 %ni tashkil etdi, hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Qibray 7,8 % va Yangiyo'l 7,8 % tumanlari mos ravishda O'rtachirchiq, Bo'stonliq 7,6 % va 6,7 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Ohongaron shahar (0,1 %), Yangiyo'l (0,1 %) va Olmaliq (0,4 %) shaharlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2019 yilning 1 aprel holatiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,8 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 95,1 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 103,8 %ni tashkil qildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	• 78,2%
Fermer xo'jaliklari	• 7,6%
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	• 14,2%

Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 78,2 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,6 % – fermer xo'jaliklariga, 14,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning 1 aprel holatiga ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 216,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 95,1 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,1 % ni tashkil qildi.




2019 yilning 1 aprel holatiga ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

Ekin turi	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da
Sabzavotlar	13305	91	1319	86,4	9267	95,8	2719	79,4


Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda 13305 tonna (90,98 yaxlitlab -91,0%) sabzavotlar yig'ib olindi.

2019 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavotlar (tonna)



Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dexqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida sabzavotlarning 69,7 % i ular tomonidan ishlab chiqarildi.

Chorvachilik




2019 yilning 1 aprel holatiga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2247,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 84,5 %ni tashkil etdi.

2019 yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 65,3 ming tonna go'sht (2018 yilning shu davriga nisbatan 105,2 % ga ko'p), 151,2 ming tonna sut (101,6 %), 242840 ming.dona tuxum (102,4%) ishlab chiqarildi.

2019 yilning 1 aprel holatiga ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	65,3	105,2	1,8	102,5	53,6	96,3	9,9	213
Sut, ming t	151,2	101,6	8,4	102,3	136,5	101,3	6,3	139,0
Tuxum, mln. dona.	242,8	102,4	13,1	103,4	116,2	101,2	113,5	103,4
Baliq, ming.tonna	2,3	104,2	0,5	92,4	0,01		1,8	107,2


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 82,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 90,3 %i, tuxumning 47,9 %i, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga Baliqning 78,7 %i Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go'sht (*ming t*)





Sut (*ming t*)





Tuxum(ming.dona)



Baliq (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 856,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 363,2 ming boshga, qo'y va echkilar – 879,9 ming boshga, parrandalar – 13838,0 ming boshga etdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 9,4 ming boshga (1,1%ga), shu jumladan sigirlar – 1,9 ming boshga (0,5 %ga), qo'y va echkilar 17,9ming boshga (2,0 %ga), parrandalar – 114,0 ming boshga (0,8 %ga) ko'paydi.

2019 yilning 1 aprel holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	856,5	101,1	63,2	102,9	754,9	100,6	38,3	108,3
<i>shu jumladan</i> sigirlar	363,0	100,5	21,3	104,2	331,1	100,0	10,6	110,5
Qo'y va echkilar	879,9	102,1	201,6	103,6	649,1	101,2	29,2	111,7
Parrandalar	13838,0	100,8	695,1	112,8	9126,8	99,4	4016,2	102,3

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 22,9 % fermer xo'jaliklariga, 73,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,0 % fermer xo'jaliklariga, 66,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



7,4%

88,1%

4,5 %



22,9%

73,7%

3,4%



5,0%

65,9%

29,1%


Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2019 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 71-230-86-68
- 71-230-86-69